



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2023 - yil 28 - fevral

18-5-0-Q/23

Navoiy viloyat hokimligi

Navoiy viloyati hokimligining 2023-yil I yarim yillik Ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta‘lim sifatini ilg‘or jahon standartlariga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohotlarni davom ettirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-noyabrda Navoiy viloyatiga tashrifi davomida Navoiy viloyatida na‘munaviy tarzda tashkil etish yuzasidan ilgari surilgan beshta tashabbuslari hamda alohida belgilab bergan ustuvor vazifalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil I yarim yillik ish rejasini to‘g‘risida”gi 11/72-sonli bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligining 2023-yil I yarim yilligi uchun ish rejasini 1-20-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi boshqaruv apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “**Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili**”da amalga oshirishga oid davlat Dasturida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajalardagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bo‘yicha 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son farmonida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlarida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyunda yoshlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston yoshlari hamda 2022-yil 22-avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlarda so‘zlagan nutqlarida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-noyabrdagi “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish hamda 2023-yil 1-fevraldagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishlaridagi nutqlarida;

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifidagi uchrashuvlar va yig‘ilishlaridagi ma‘ruzalarida;

viloyat hokimligining Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo‘yicha 2023-yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalarida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil I yarim yillik uchun ish rejasidagi belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini doimiy ta‘minlab borish.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchilari va yordamchilariga viloyat boshqarmalari, tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2023-yil I yarim yilligi uchun ish rejasining bajarilishini ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta‘minlashda ijro intizomiga qat‘iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

uch kun muddatda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “**Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili**”da amalga oshirishga oid davlat Dasturida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining 2023-yil I yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash;

doimiy va tizimli asosda – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holati tanqidiy o‘rganib chiqilishini (*ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq*) ta‘minlash;

2023-yil 30-iyunga qadar tegishli viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linmalari, Ijro intizomi nazorati bo‘limiga joriy yil I yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etilishini ta‘minlash topshirilsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, kotibiyat mudirlariga:

viloyat hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e‘tibor qaratish;

2023-yil I yarim yillik ish rejasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish choralari ko‘rish;

komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tuman hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish;

2023-yil 30-iyungacha qadar viloyatdagi korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda shahar, tuman hokimliklari bilan birgalikda 2023-yil II yarim yillik ish rejasi loyihasiga takliflarni viloyat hokimligi Ijro intizomi nazorati bo‘limiga taqdim etish topshirilsin.

6. Viloyat hokimligi Ijro intizomi nazorati bo‘limi tegishli mas‘ullar bilan birgalikda viloyat hokimligining 2023-yil I yarim yillik ish rejasi bajarilishi monitoringini yuritsin va har oy yakuni bilan viloyat hokimiga axborot kiritib borsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va masalalarning o‘z vaqtida to‘liq bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsan mas‘uldirlar.

8. Mazkur farmoyish topshiriqlari ijrosining nazorati viloyat hokimining o‘rinbosarlari va viloyat hokimligining tarkibiy bo‘linma rahbarlari zimmlariga yuklansin.

Viloyat hokimi



N. Tursunov